

8-1-2019

THE MAIN DIRECTIONS OF IMPROVING THE PAYMENT SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Z. Umarov
Tashkent Financial institute

Sh. Turdiyeva
Tashkent Financial institute

Z. Pardayeva
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Umarov, Z.; Turdiyeva, Sh.; and Pardayeva, Z. (2019) "THE MAIN DIRECTIONS OF IMPROVING THE PAYMENT SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN," *International Finance and Accounting*: Vol. 2019 : Iss. 4 , Article 2.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss4/2>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

THE MAIN DIRECTIONS OF IMPROVING THE PAYMENT SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Key words: payment system, electronic payments, non-cash settlements, plastic cards.

The article discusses the development of the national payment system, as well as the main directions of improving the payment system of the Republic of Uzbekistan, including the retail payment system.

A payment system is any system used to settle financial transactions through the transfer of monetary value. The term electronic payment refers to a payment made from one bank account to another using electronic methods and forgoing the direct intervention of bank employees.

Payment system is a mechanism that facilitates transfer of value between a payer and a beneficiary by which the payer discharges the payment obligations to the beneficiary. Payment system can be broadly classified into Large Value Systems and Retail Payment System.

I. Large Value Payment System.

II. Retail Payment System:

1. Cash Payment

2. Paper Based Payments

- Cheques

- Demand Drafts

- Payment Orders or Banker's

3. Card Based Payments

- Credit Card

- Debit Card

4. Electronic Payments and Remittances

- Electronic Clearing Services

- Electronic Funds Transfer

- Real Time Gross Settlement

- Internet Banking

- Mobile Banking.

Modern payment systems use cash-substitutes as compared to traditional payment system. This includes debit cards, credit cards, electronic funds transfers, internet banking and e-commerce payment systems.

Payment systems may be physical or electronic and each has its own procedures and protocols. Standardization has allowed some of these systems and networks to grow to a global scale, but there are still many country-specific and product-specific systems.

In recent years, the number of transactions in Uzbekistan is growing faster than the turnover of money on the card. People pay with a card not only when they buy something expensive, but they pay it almost all their purchases in cafes, shops, gas stations and even utilities. According to the press service of the financial regulator, in 2018, the number of payment transactions through the interbank payment system of

the Central Bank increased by 32% compared with 2017. In 2018, 74.7 million transactions worth a total of 845.6 trillion soums passed through the interbank payment system of the Central Bank. The total number of users of remote banking service as of January 1, 2019 was more than 7.95 million. Almost 360 thousand of them are legal entities and individual entrepreneurs. And about 7.6 million - individuals. Through the clearing system in 2018 payments were made for 10,154.9 billion soums, whereas in 2017 this amount was 5181.3 billion soums.

After the serious malfunction of Uzcard Payment System in September 2018, the President of Uzbekistan instructed the Central Bank to create a National Interbank Processing Center and a new retail payment system. HumoCard is a Humo payment system based on bank payment cards to settle transactions both in Uzbekistan and abroad. The Humo system is an integral part of the payment of Uzbekistan.

Humo is a complex of the settlement participants, payment instruments and settlement funds, software and hardware, as well as the flow of funds within the country and the interaction with foreign payment system.

The operator of the payment system is National Interbank Processing Centre LLC, which performs the information clearing of operations in foreign currency in Uzbekistan, as well as the processing functions for all operations within the HumoCard payment system. The Function of the Bank which carries out settlements in national currency within the HumoCard payment system is performed by the Clearing Centre of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

The Humo payment system represented by its operator has established relations with international payment system (VISA, MasterCard, UnionPay International) to ensure the conduct of operations in foreign currency by Humo bank cards abroad and by the cards of foreign banks of the above systems in Uzbekistan. The Bank membership in the HumoCard payment system is voluntary.

“CLICK” system - it is a system of mobile banking allowing individuals perform the payments by way of mobile phone (through USSD/SMS-portal) or Internet (through Web/Web-mobile) for service of cellular operators, internet providers; transfer monetary funds to other individuals, retail business establishments; make online purchases in Internet shops directly from its own bank account.

Main capabilities of “CLICK”:

1. Effecting of payments through mobile phone or Internet directly with bank account of individuals without the use of cash funds;
2. Management of outstanding invoice with the help of USSD/SMS/WEB - portal;
3. Transfer of funds from one account to another;
4. Review of history of payments;
5. Receipt of account details.

**Umarov Z., Turdiyeva Sh. A.
Toshkent Moliya Instituti,
Pardayeva Z.A.
Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY TO‘LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Maqolada milliy to‘lov tizimining rivojlanishi, O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimi, jumladan chakana to‘lov tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: to‘lov tizimi, chakana to‘lov tizimlari, elektron to‘lovlar, naqd pulsiz hisob-kitoblar, plastik kartochkalar.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЛУЧШЕНИЯ ПЛАТЕЖНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

В статье рассмотрены вопросы развития национальной платежной системы, а также основные направления совершенствования платежной системы Республики Узбекистан, в т.ч. розничной платежной системы.

Ключевые слова: платежная система, розничные платежные системы, электронные платежи, безналичные расчеты, пластиковые карточки.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar har tomonlama amalga oshirilayotgan bir paytda, bank tizimini yanada rivojlantirish, ularning jozibadorligini yanada oshirish dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklari rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqalar, hisob-kitoblarning yangi turlarini joriy etish va takomillashtirish talab etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning milliy to‘lov tizimini yanada takomillashtirish bilan ham uzviy bog‘liq.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan bank-moliya sohasiga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bank tizimini yanada rivojlantirish masalalari 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishlarida ham alohida belgilab berilgan. Jumladan, ushbu farmonda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish, to‘lovlarning zamonaviy shaklini joriy etish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning

2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida¹:

“To‘lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisobraqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o‘tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko‘rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish” masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakat milliy to‘lov tizimi, to‘lov tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha bir qator iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy ishlarida tadqiq etganlar.

To‘lov tizimi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, Bryus Sammersning fikricha, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish natijasida paydo bo‘lgan majburiyatlarni ushlab turish uchun pullik to‘lovlarni o‘tkazishda ishlatiladigan mablag‘lar yig‘indisiga to‘lov tizimi, deyiladi.

Jahon banki mutaxassislaridan yana biri O.Margaret to‘lov tizimiga quyidagicha ta‘rif bergan: “To‘lov tizimi- bu pul mablag‘larini o‘tkazish mexanizmidir”. To‘lov tizimiga yana bir ta‘rif Rossiyaning iqtisodchisi M.P.Beryozina tomonidan berilgan bo‘lib, unga ko‘ra “mamlakatning to‘lov tizimi- bu iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi qarz majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlovchi, qonuniy boshqariluvchi elementlar yig‘indisi”. Bu ta‘rif mazmunan Bryus Sammersning ta‘rifiga yaqinroq ekanligini ko‘rish mumkin, ya‘ni bu ikki ta‘rifda “..yuzaga kelgan majburiyatlar..” degan tushuncha ishlatilgan.

Rossiyalik iqtisodchilar V.V.Sarey va A.A.Kantarovich to‘lov tizimiga quyidagicha ta‘rif bergan: „To‘lov tizimi to‘lov vositasi sifatida elektron raqamli pullarni ishlatish orqali zaruriy bo‘lgan dasturiy vositalar yig‘indisi hisoblanadi”.

V.G.Solovyevning ta‘kidlashicha: “To‘lov tizimi- bu hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta‘minlovchi qoida va mablag‘lar kompleksidir”. Ushbu ta‘rifda ham asosiy urg‘u hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari hamda pul mablag‘lariga berilmoqda.

Rossiyalik yana bir olim- O.I.Lavrushinning ta‘rifiga ko‘ra, “Davlatning to‘lov tizimi- bu qonun doirasida tartibga solinuvchi elementlar yig‘indisi bo‘lib, u iqtisodiy faoliyat jarayonida vujudga keluvchi majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlaydi”². Ushbu ta‘rifda muallif tomonidan “qonun doirasida tartibga solinuvchi element” deganda nima nazarda tutilgani aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, u to‘lov tizimining iqtisodiy mohiyatini boshqa iqtisodchi olimlardan ko‘ra kengroq ochib bergan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

To‘lov tizimi - iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha subyektlar o‘rtasida pul mablag‘larining qonun-qoidalar asosida harakatlanishini ta‘minlovchi dastur yoki mexanizm.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning „O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-sonli Farmoni.09.01.2018

² Лаврушин О.И. Банковское дело: учебное пособие.- М.: Финансы и статистика.2004г.-с.366.

To‘lov tizimining maqsadi- iqtisodiy faoliyatni tashkil etish maqsadida paydo bo‘lgan majburiyat yuzasidan to‘lovni to‘liq, tez o‘tkazish va xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

To‘lov tizimini 3 qismga ajratish mumkin:

1. Banklararo to‘lov tizimi.
2. Banklarning ichki to‘lov tizimi.
3. Chakana to‘lov tizimi.

Milliy to‘lov tizimida Markaziy bankning o‘rni juda katta hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida Markaziy bankning maqsadi va vazifalari bayon etilgan bo‘lib, unda „Markaziy bankning hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish” vazifasi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu vazifani bajarishda Markaziy bank mamlakat to‘lov tizimini tashkil etadi, uni boshqaradi, naqd pulsiz hisob-kitoblarning ham jismoniy, ham yuridik subyektlar uchun majburiy hisoblangan shakllarini, elektron to‘lovlarni amalga oshirishni tashkil etadi, to‘lov tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.


Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda moliya-bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi bank texnologiyalari, zamonaviy bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari takomillashishi iqtisodiy faollikni jadallashtirish hamda aholining turmush darajasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda 2019 yilning aprel holatiga ko‘ra, 34 296 ta e-POS virtual terminallar o‘rnatilgan bo‘lib, shulardan 29 809 ta virtual terminallar savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida o‘rnatilgan, qolgan 4 487 tasi esa bevosita tijorat bank filiallarida birlashtirilgan. Buning natijasida respublikada kontraktsiz, ya‘ni statsionar terminaldan foydalanmagan holda elektron to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Respublikamizda bankdan tashqari pul aylanmasini qisqartirish, aholining bo‘sh pul mablag‘ini bank depozitlariga jalb qilish, shuningdek, plastik kartalar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish yo‘liga o‘tilib, tovar va xizmatlar uchun bank to‘lov kartalari orqali hisob-kitob qilish keng ommalashdi. Xususan, 2018-yil holatiga ko‘ra, 17,7 mln.ta bank plastik kartalari muomalada bo‘lgan. Yil boshida O‘zbekistonda 244,9 ming ta to‘lov terminali mavjud bo‘lib, 2018-yilga nisbatan 3,9 foizlik o‘shish qayd etilgan. Bankomat va infokiosklar soni esa 21,8 foizga ortib, 6859 taga yetgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-sentyabrdagi qaroriga asosan milliy chakana to‘lov tizimini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan Markaziy bank tomonidan joriy etilayotgan yangi ”Humo” to‘lov tizimi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu to‘lov tizimini qulayliklaridan biri shuki, ayni vaqtda biz plastik kartochkalardan naqd pul olish, savdo do‘konlariga to‘lov qilish kabilarda

foydalanayotgan edik, “Humo” to‘lov tizimida bu imkoniyatlar yanada kengaytiriladi. Metro yoki avtobuslarda uni terminalga tegizib, to‘lovni amalga oshirishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida to‘lov tizimi imkoniyatlarini yanada oshiradi.



1-rasm. 2007-2018 yillarda Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni.³

2007-2018 yillar mobaynida Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar soni o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2018 yili Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar qiymati 2017-yilga nisbatan 32 foizga o‘shib, 845,6 trln so‘mni tashkil etdi. Bu esa o‘z navbatida amalga oshirilgan operatsiyalar soni 74,7 mln.tani tashkil etishiga olib keldi. Tizim orqali o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar soni 272,5 ming tani, o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar summasi 3,1 trln so‘mni tashkil etdi.

To‘lov tizimini takomillashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarning naqd pulsiz hisob-kitoblarini yanada tezlashtirish maqsadida 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika „Elektron hukumat“ tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning „Chakana to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko‘rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash” loyihasi kiritildi. Ushbu tizimni yaratishdan maqsad unga tijorat banklarining filiallari, ularning kassalari va Banklar assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Processing

³ www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdir.

Avvalambor, tijorat banklarining chakana bank xizmatlarini o‘rganish masalasi bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, banklar o‘rtasidagi raqobat kurashi bo‘lsa, ikkinchidan, bu xizmat turidan foydalanuvchilarning ko‘p qismi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Boshqa sabablardan yana biri esa tarmoqlarda rivojlanish ketayotgan zamonda inson omilining zamon bilan o‘zgarib borishi va unga ko‘rsatiladigan xizmat turining ham qulay va vaqt talab qilmaydigan bo‘lishi ham aynan hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalardandir.

Chakana bank xizmatlariga bog‘liq statistik ma’lumot bilan tanishib chiqamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda 29 ta bank faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, bu esa ushbu chakana bank xizmatlari borasida raqobatni yuzaga keltiradi va shu bilan birgalikda aholiga yanada qulay imkoniyatlar yaratilishiga turtki bo‘ladi.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2019 yil 1 mart holatiga⁴

№	Tijorat banki	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	TIF Milliy banki	40 722	847 513	888 235
2	AT “O‘zsanoat-qurilishbanki”	18 786	627 835	646 621
3	“Agrobank” ATB	92 000	1 254 223	1 346 223
4	“Ipoteka-bank” ATB	80 287	756 571	836 858
5	“Mikrokreditbank” ATB	26 825	544 377	571 202
6	AT Xalq banki	20 845	1 944 043	1 964 888
7	“Savdogar” ATB	2 995	81 276	84 271
8	ATB “Qishloqqurilishbank”	16 113	242 634	258 747
9	“Turonbank” ATB	14 221	137 527	151 748
10	“Hamkorbank” ATB	59 605	567 299	626 904
11	„Asaka” ATB	11 864	545 830	557 694
12	“Ipak Yo‘li” AITB	12 950	253 779	266 729
13	“Ziraat bank Uzbekistan” AJ	829	11 114	11 943
14	“Trastbank” XAB	14 435	77 498	91 933
15	AT “Aloqabank”	12 877	200 030	212 907
16	“KDB Bank O‘zbekistan”	643	31 655	32 298

⁴ www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

	AJ			
17	“Turkiston” XATB	2 455	8 214	10 669
18	Eron “Soderot” banki	92	598	690
19	“Universal bank” ATB	2 470	24 643	27 113
20	“Kapitalbank” ATB	19 915	112 972	132 887
21	“Ravnaqbank” ATB	1 562	8 769	10 331
22	“Davir-bank” XATB	14 847	44 997	59 844
23	“Invest Finance Bank” ATB	14 772	133 005	147 777
24	“Asia Alliance Bank” ATB	8 086	132 764	140 850
25	“Hi-tech Bank” XATB	1 101	18 022	19 123
26	“Oriyent Finans” XATB	6 793	108 729	115 522
27	“Madad Invest Bank” ATB	398	2 683	3 081
28	“O‘zagroeksportbank” ATB	113	233	346
29	“Poytaxtbank” AJ	-	93	93
	Jami	498 601	8 718 926	9 217 527

Yuqoridagi jadvalda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2019-yil 1-mart holatiga berilgan. Unga ko‘ra esa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng ko‘p masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank bu “Agrobank” ATB (92 000) bo‘lsa, jismoniy shaxslarga eng ko‘p masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank esa AT “Xalq banki” (1 944 043) bo‘lgan. Jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng kam miqdorda masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank Eron “Soderot” banki (92) bo‘lsa, jismoniy shaxslarga eng kam masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank esa “Poytaxtbank” AJ (93) hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida” 2013-yildagi 3-iyunda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan nizom va unga kiritilgan o‘zgarishlar asosida olib boriladi. Respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblar qonunchilikda ko‘zda tutilgan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

1. To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar.
2. Inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar.
3. Akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar.
4. Cheklar bilan hisob -kitoblar.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, so‘ngi yillarda mamlakat to‘lov tizimini takomillashtirish, uni sifatini oshirish, chakana to‘lov tizimini yanada isloh qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Ammo, bugungi kunda to‘lov tizimida bir qancha muammolar ham mavjud. Jumladan:

1. Bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to‘lov tizimining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta’sir ko‘rsatmoqda hamda aholining keng qatlamlari uchun ochiq bo‘lgan innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to‘sqinlik qilmoqda.

2. Respublika tijorat banklarining umumiy ulushida bankomat va infokiosklar sonining kamligi.

3. Bank to‘lov kartalaridan chet el valyutasini yechish bo‘yicha cheklovlarning mavjudligi.

To‘lov tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va uni yanada takomillashtirish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir qator vazifalar ham mavjud, ya’ni:

1. Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarini terminallar va infokiosklar bilan yetarli darajada ta’minlash.

2. Yangi masofaviy bank xizmatlarini amaliyotga joriy etish. Xususan, kreditlarni masofadan turib, “on-line” tarzda rasmiylashtirishni hamda „Call center” masofaviy bank xizmatlarini O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida joriy etish.

3. Kliring tizimi infrastrukturasi axborot muhofazasi va xavfsizlikni hamda axborot tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash.

4. Kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirishni ta’minlash maqsadida mijozlarga masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimlarini yanada takomillashtirish.

5. Terminallar uchun Visa, Mastercard, Union Pay xalqaro tizimlari kartalaridan ichki bozorda to‘lovlarni amalga oshirilishini ta’minlash.

6. Virtual plastik kartochkalarni joriy etishni tashkil etish.

7. Mijozlarni masofadan turib identifikatsiyalash mexanizmini joriy etish.

8. Muloqotsiz (kontaktsiz) texnologiyalarni qo‘llagan holda naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish xizmatlarini takomillashtirish (QRcode va NFC).

Yuqorida qayd etib o‘tilgan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etish orqali O‘zbekiston Respublikasi to‘lov tizimini yanada rivojlantirishga, masofaviy bank xizmatlari sifatini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1995.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2018 yildagi PF-5296 sonli Farmoni.

3. “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli Qarori.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 2570, 04.04.2014).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi “Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1325-sonli Qarori.

6. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishning 2016-2018 yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasi”.

7. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.